

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**BUXORO YUQORI TEXNOLOGIYALAR MUHANDISLIK-TEXNIKA  
INSTITUTI**

**“Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish” fakulteti**

**“Sanoatda ishlab chiqarishni tashkil etish” kafedrası**

**Himoyaga ruxsat qilinadi**

**Kafedra mudiri: \_\_\_\_\_ dots. Ro'ziyeva D.I.**

**« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2011 y.**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: “Iqtisodiyot asoslari” fanini o'qitish texnologiyasini  
yaratish  
(Buxoro iqtisodiyot va bank koleji misolida)**

**Bajardi:**

**10-08 MMNDT guruh talabasi  
Hatov Zokir**

**Rahbar:**

**kat.o'qit. Gaybullayev F.T.**

**Buxoro 2011 y.**

**Himoya kuni**

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2011 y.

**DAK bahosi**

---

**DAK qarori**

---

---

---

---

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>	<b>4</b>
<b>ASOSIY QISM:</b>	<b>5</b>
<b>1.1. “IQTISODIY BILIM ASOSLARI” FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI.</b>	<b>5</b>
<b>1.2.«Iqtisodiy bilim asoslari” fanining mazmuni.</b>	<b>6</b>
<b>1.3. Mavzuning o`quv maqsadlari.</b>	<b>9</b>
<b>Fanning interfaol o`qitish metodikasini ishlab chiqishda dastlabki shart-sharoitlar.</b>	<b>11</b>
<b>«IKTISODIY BILIM ASOSLARI »FANI bo`yicha ma`ruza va seminar mashg`ulotlarida ta`lim texnologiyalarini ishlab chiqishning kontseptual asoslari</b>	<b>13</b>
<b>1.6. «Iktisodiy bilim asoslari» fanidan ma`ruza va seminar mashg`ulotlarida o`qitish texnologiyasi</b>	<b>15</b>
<b>1.7. “Ish haqi va mehnat munosabatlari” mavzusini o`qitishda “klaster” uslubining qo`llanilishi</b>	<b>21</b>
<b>O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash mezonlari va materiallari</b>	<b>28</b>
<b>II. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI.</b>	<b>30</b>
<b>Xulosa</b>	<b>35</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.</b>	<b>36</b>

## KIRISH.

Dune buylab jaxon-moliyaviy iqtisodiy inkirozi kechaetgan bir vaktida Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy- iqtisodiy siyosatda mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishga, ayniqsa, yosh avlodni milliy tiklanish mafkurasi ruhida tarbiyalashga juda katta e'tibor berilmokda.

YOsh avlodni tarbiyalashda va ularga bilim berishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati bekiyos. Ayniksa zamonaviy ta'lim texnologiyalarining interfaol usularini ta'lim jarayonida kullanilishi xozirgi zamonning eng dolzarb masalalaridan biri xisoblanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning "O'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik ko'rsatadigan o'qituvchi va domlalariga e'tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish diqqatimiz markazida bo'lishi darkor" degan so'zlarini ta'kidlab utishi va bu borada "Barkamol avlod yili" Davlat dasturida ham asosiy yo'nalishlardan biri sifatida ish boshlaganligining aloxida e'tirof etish zarur.

Bitiruv malakaviy ishi "Iqtisodiy bilim asoslari" fanini o'qitishda interfaol usullarni qo'llash metodikasi deb nomlanadi. Bu bitiruv malakaviy ishida keltiriladigan ta'lim texnologiyalarining har biri o'zida o'quv mashg'ulotini o'tkazish shart-sharoiti to'g'risida axborot materiallarini, pedagogik maqsad, vazifa va ko'zlangan natijalarni, o'quv mashg'ulotning rejasi, o'qitishning usul va vositalarini mujassamlashtirib, bu o'quv mashg'ulotning texnologik kartasini, ya'ni o'qituvchi va o'quvchining mazkur o'quv mashg'ulotida erishadigan maqsadi bo'yicha hamkorlikdagi faoliyatning bosqichma-bosqich ta'riflanishini ham o'z ichiga oladi. Bitiruv malakaviy ishi tarkibi kirish, ta'lim texnologiyasining kontseptual asoslari, har bir mavzu bo'yicha ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida o'qitish texnologiyasidan iborat bulib, . ma'lumotlar maksimal darajada umumlashtiriladi va tartibga solinadi. Ularni o'zlashtirish va yodda saqlab qolishni kuchaytirish uchun jadval va chizmalardan foydalaniladi.

Hozirgi kunda jahon tajribasidan ko'rinib turibdiki, ta'lim jarayoniga o'qitishning yangi, zamonaviy usul va vositalari kirib kelmoqda va ulardan ta'lim tizimida samarali foydalanilmoqda.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interfaol usullardan foydalanish deb nomlangan bitiruv malakaviy ishida fanni ukitish uchun interfaol usullarning kullanilishi, ukitishning ta'lim texnologiyasi iqtisodiy kasb xunar kollejlarida ma'ruza va seminarlarni o'qitish borasida dars mashg'ulotlarida yangi texnologiyalarni qo'llash qonun-qoidalariga tayangan holda ishlab chiqilgan.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interfaol usullardan foydalanish deb nomlangan **bitiruv malakaviy ishini bajarishdan maqsad** ta'lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash va zamonaviy o'quv-uslubiy majmualardan samarali foydalanishni ta'minlashda xalqimizning boy ma'naviy merosi, buyuk mutaffakirlarimizning g'oyalari, davrimizning ilg'or yangiliklariga tayangan holda yangi metodik tizimni shakllantirishdir. Ushbu maqsadga erishishdagi asosiy vazifa ta'lim, tarbiya va rivojlanish birligini ta'minlash hisoblanadi, shuningdek ta'lim oluvchilarning

qobiliyatlari, ong va ko`nikmalarini o`stirish, ilmiy-amaliy bilimlarni oshirish va «Iqtisodiy bilim asoslari» faniga oid ko`nikmalarni shakllantirishdir.

Iqtisodiy fanlarni o`qitishda interfaol usullardan foydalanish deb nomlangan mavzusidagi **bitiruv malakaviy ishining vazifalari** qo`yidagilar:

- “Iqtisodiy bilim asoslari” fanini o`qitish maqsadi va vazifalarini aniqlash;
- Fanning mazmunini oydinlashtirish;
- Fanni ukitish maksadlarini yoritish;
- Fanni o`qitish shakli, metodlari va vositalarini aniqlash;
- O`quv materiallarini o`zlashtirishni ta`minlash maqsadida o`quvchining faoliyatini tashkil etish va ukuvchilar bilimini baxolash va nazorat kilishni amalga oshirish.

Ushbu malakaviy bitiruv ishining dolzarbligi ukuvchilarning faolligini ta`minlovchi zamonaviy o`qitish uslublarining mavjud imkoniyatlarni inobatga olib, ularni yanada rivojlantirish, takomillashtirish va boyitishga qaratilishi zarurligidan kelib chiqadi.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi - «Iqtisodiy bilim asoslari» fanini o`qitishda interfaol usullarni qo`llash metodikasini yaratishdan iborat.

### **1.1. “IQTISODIY BILIM ASOSLARI” FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI.**

“Iqtisodiy bilim asoslari” fanini, uning qonun-qoidalarini bilish uchun, eng avvalo, iqtisodiyotning o`zi nima, uning vazifasi nimalardan iborat, degan savolga javob berish lozimdir. Insoniyat hayoti va uning taraqqiyoti juda murakkab, ko`p qirrali va g`oyat chigal muammolarga bo`ydir. Bu muammolar kishilarning moddiy ne`matlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko`rsatish, fan, madaniyat, siyosat, mafkura, ahloq, davlatni boshqarish sohalaridagi va nihoyat boshqa faoliyat turlarining borgan sari ko`payib, rivojlanib hamda ularning o`zgarib borishi natijasida vujudga keladi. Uzoq davrlar davomida insoniyat fikrini band qilib kelgan ayrim masalalar bugungi kunda oddiy haqiqat va oson bilish mumkin bo`lgan narsaga o`xshab ko`rinadi.

Masalan, bugun hammaga ma`lumki, kishilar yashashlari va xayot kechirishlari uchun extiyojlarni kondirish siyosat, san`at, adabiyot, fan, ma`rifat, madaniyat, ta`lim bilan shug`ullanishlari uchun hayotiy ne`matlarni iste`mol qilishlari, kiyinishlari kerak. Buning uchun esa oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va turli xizmatlardan iborat hayotiy vositalar zarur. Har bir kishi, o`zining kundalik hayotida bir qancha muammolarga, ya`ni hayotiy ehtiyojlari – kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-ro`zg`or buyumlari, bilim olish kabi ehtiyojlar uchun zarur bo`lgan pul daromadlarini qaerdan, nima hisobiga topish kerak degan muammolarga duch keladi.

Shu muammolarni echish va o`z talablarini qondirish maqsadida kishilar turli yo`nalishlarda, sohalarda faoliyat ko`rsatadilar. Demak, insonning turli faoliyatlari ichida eng asosiysi, insoniyatning yashashi va uning kamol topishini ta`minlaydigani moddiy va ma`naviy ne`matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko`rsatishdan iborat bo`lgan iqtisodiy faoliyatdir.

Cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo`lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste`molchilarga etkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog`liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlarni yaxlitligi bir so`z bilan aytganda iqtisodiy faoliyat deyiladi.

Iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli cheklangan resurslardan oqilona foydalanib, aholining to`xtovsiz o`sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish, unga eng kam resurslar sarflab,

ko`p samaraga erishish, resurslar va mahsulotlarni to`g`ri taqsimlash yo`llarini topish iqtisodiyotning asosiy mazmuni ekanligidir.

Iqtisodiyot o`rganishi lozim bo`lgan muhim yo`nalishlardan biri cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanish, ijtimoiy xo`jalikni samarali yuritish va boshqarish, milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning omillari, qonuniyatlari va yo`llarini o`rganish va ko`rsatib berishdan iboratdir. Bu esa fanning predmeti, uning maqsadi va vazifalarida yanada oydinroq ko`rinadi.

“Iqtisodiy bilim asoslari” fanining maqsadi va vasifasini ikki tomonlama, ya`ni ham amaliy va ham nazariy tomonlarini tushuntirish mumkin.

Amaliy iqtisodiyotning asosiy maqsadi iqtisodiy o`shishni ta`minlash va shu asosda o`shib boruvchi ehtiyojlarni qondira borishdan iborat. Uning vazifasi shu maqsaddan kelib chiqib, cheklangan turli xil resurslardan samarali foydalanib, uning har bir birligi evaziga ko`proq tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko`rsatishni ta`minlash, har bir faoliyat turi bo`yicha xarajatlar miqdori bilan erishilgan samara, ya`ni tovar va xizmatlar miqdorini taqqoslash, resurslardan unumliroq foydalanish yo`llarini topishdan iboratdir. Bundan tashqari, iqtisodiyot aholini ish bilan ta`minlash, pulning qadrsizlanishi oldini olish, aholini ijtimoiy himoya qilish yo`llarini ko`rsatib berishi lozim. Iqtisodiyot fani makroiqtisodiyot darajasida tahlil qilib, uning sohalari, ko`rsatkichlari, omillari o`rtasidagi bog`lanishlarni, iqtisodiy ko`rsatkichlari, omillari o`rtasidagi bog`lanishlarni, iqtisodiy o`shish yo`llarini aniqlab ko`rsatadi va davlatning ichki va tashqi iqtisodiy siyosatida ilmiy asos bo`lib xizmat qiladi.

Iqtisodiyotning nazariy maqsadi esa, eng avvalo, ilmiy bilishdan iboratdir. SHundan kelib chiqadiki, iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni kuzatish, ulardagi shakl va mazmun o`zgarishlarini, ichki bog`lanish va aloqalarni, ziddiyatlarni, qonun-qoidalarni, tushunchalarni bilib, birinchi navbatda, ukuvchilarga, iqtisodchi mutaxassislariga va iqtisodiyot bilan qiziquvchi boshqa xodimlarga o`rgatishdan iboratdir.

Iqtisodiyotning biz qayd qilgan amaliy va nazariy tomonlari bir-biri bilan chambarchas bog`liqdir. Amaliy iqtisodiyot nazariy bilimga ega bo`lishni, u bilan qurollanish zaruriyatini taqozo etadi. Nazariy bilim esa oldindan ko`ra bilish va amaliy harakat yo`lini to`g`ri belgilash imkonini beradi.

## **1.2.«Iqtisodiy bilim asoslari» fanining mazmuni.**

Ijtimoiy-gumanitar fanlar ichida **Iqtisodiy bilim asoslari** fani alohida o`rin tutadi. CHunki har doim insonning hayoti iqtisodiyot bilan chambarchas bog`liq bo`lgan va uning asosida ta`minlab kelingan. SHuningdek, iqtisodiyotning muhimligi shundaki, u insonning eng zarur moddiy sharoitini ta`minlaydi, yashash uchun sharoit yaratadi. Iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli rivojlanayotgan jamiyatda tinchlik, tartib va barqarorlik xukm suradi. Samarali iqtisodiyot tamoyillari va qonunlarini bilish esa insonlarda o`ziga ishonch uyg`otadi, eng qiyin iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va baholashga, shuningdek optimal xo`jalik qarorlari qabul qilishga imkon beradi.

**Iqtisodiy bilim asoslari** fanini o`rganish insonning ilmiy dunyoqarashi o`zgaradi, uning intellektual rivojlanishini rag`batlantiradi, eng qiziqarli mashg`ulotiga aylanadi. **Iqtisodiy bilim asoslari** fanining vazifasi – ob`ektiv iqtisodiy jarayonlarni o`rganish asosida sub`ektlar harakati modellarini optimallashtirishdir. Firma yoki korxonaning marketing

izlanishlarida yoki uning iqtisodiy strategiyasini belgilashda va amalga oshirishda turli modellardan foydalanish iste'molchilarning o'zgarishlarga bo'lgan munosabatlarini bashorat qilishga yoki raqobatchilarning aks ta'sirlari, xatti-harakatlarini ma'lum ehtimollik darajasi bilan aniqlashga imkon beradi.

**Iqtisodiy bilim asoslari** fanini mukammal o'rganishning afzalligi yana shu bilan izohlanadiki, to'g'ri qaror qabul qilishda insonlar doimo kerakli va ishonchli nazariy bilimga va ma'lumotga ega bo'lishi zarur. Agar ular o'z bilimlariga ega bo'lmasa tajriba va xatolaridan kelib chiqqan, holda o'ziga qimmatga tushgan usulni qo'llashi mumkin yoki boshqalarning tajribasi, xatolarini o'rganishi mumkin, lekin iqtisodiyot nazariyasidan olgan bilimlariga murojaat qilsa ularning ishi ancha engillashadi, belgilagan strategiyasi va rejasi aniq bo'ladi.

**Iqtisodiy bilim asoslari** fani ma'lum bir ob'ekt yoki hodisa to'g'risida yaxlit tasavvur beruvchi bilimlar tizimi bo'lish bilan insonlarda oldindan ko'ra bilish, bashorat qilish, rejalashtirish ko'nikmalarini hosil qiladi, ko'p xatolardan asraydi, hisob-kitob qilishga undaydi. **Iqtisodiy bilim asoslari** fanini baholashda aniq modellar bo'lmasligini yodda tutish kerak (model' soddalashtirilgan matematik shaklga solingan g'oya va tasavvurdir). SHuning uchun iqtisodiy modellarning ahamiyati ularning haqqoniyligi bilan emas, balki ma'lum bir iqtisodiy hodisani o'rganish va tushuntirishda uni qo'llashning imkoniyatlari bilan aniqlanadi. **Iqtisodiy bilim asoslari fani** aniq iqtisodiy va amaliy fanlarning asosini tashkil qiladi. Uning amaliyot bilan bog'liqligi esa aniq iqtisodiy fanlar orqali amalga oshirib kelinadi. O'qish jarayonida olingan bu bilimlar esa hayotda har bir inson uchun kerak bo'ladi.

**Iqtisodiy bilim asoslari** asrlardan beri har bir davlatning iqtisodiy siyosatini asoslab kelgan, uning muvaffaqiyatli rivojlanishiga sabab bo'lgan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishni muvaffaqiyatli amalga oshirish fan, madaniyatni rivojlantirish, demokratik davlat qurish uchun xalq ongi, ma'naviyatini yanada yuqori bosqichga ko'tarish zarurdir.

«Iqtisodiyotimizda erishilgan natijalar negizida avvalo bozor islohotlari va mamlakatni modernizatsiya qilishning puxta o'ylangan modeli va uzoq muddatga mo'ljallangan dasturini bosqichma-bosqich amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan tizimli, izchil va qat'iy xarakterli turganini kuzatish qiyin emas»<sup>1</sup> .

Iqtisodiy islohotlarni hayotga samarali tatbiq etishning yana bir sharti iqtisodiy ta'lim tizimini modernizatsiyalashdir, iqtisodiyot sohasi uchun mutaxassislarni shakllantirish mexanizmini yaratishdir.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ta'lim tizimidagi islohotlarning asosini shakllantiruvchi

qator me'yoriy xujjatlar qabul qilingan va amalga oshirilib kelinmoqda. Bular asosida "Ta'lim

to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlar alohida o'rin tutadi. Bu

qonunlardan kelib chiqadigan vazifa ta'lim dasturlari mazmunining yuqori sifatiga erishish va

yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilishdir.

---

<sup>1</sup> "Халқ сўзи" газетаси, № 29, 2006 йил 11 февраль.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar dars berishning interfaol usullarini nazarda tutadi. Bular munozara darslari, iqtisodiy muzokaralar, ishbilarmon o'yinlar, muammoli holatlarni, keys

stadilarini echish va hokazolardir. Ushbu usullar ukuvchilarning ijodiy faolligini oshirishda, iqtisodiy masalalarni hal qilishda, muammoni hal qilishning eng maqbul yo'llarini topishda yordam beradi. SHuningdek, iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha ta'lim oluvchi ukuvchilarga quyidagi talablar qo'yilgan:

- dunyoqarashni kengaytiruvchi bilimlar tizimiga ega bo'lishi, gumanitar va sotsial-iqtisodiy fanlarning asosini, davlatning hozirgi kundagi siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammo va hodisalarni mustaqil tahlil qila olishga qodir bo'lishi;
- mamlakatimiz tarixini bilishi, milliy g'oya va umuminsoniy qadriyatlar masalalari bo'yicha o'z nuqtai-nazarini ilmiy asoslash, milliy mustaqillik g'oyasi asosida faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;
- tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan jarayon va hodisalar to'g'risida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida ilmiy asoslangan holda foydalana olishi;
- insonning insonga, jamiyatga, atrof-muhitga nisbatan bo'lgan munosabatini boshqarishning huquqiy va ahloqiy me'yorlarini bilish, kasbiy ish jarayonida ularni hisobga ola bilishi;
- axborotni to'plash, saqlash, qayta ishlash va uni qo'llash usullarini bilishi, o'zining kasbiy ish tajribasiga asoslangan xulosalar chiqarishi;
- mustaqil ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishi, o'z malakasini oshirishi va mehnatini ilimga asoslangan holda tashkillashtirishi;
- sog'lom hayot kechirish tarzining muhimligi to'g'risida ilmiy tushunchalarga va asoslarga, jismoniy rivojlanish borasidagi bilim va malakalarga ega bo'lishi;
- kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida qo'shimcha kasbiy ta'lim olishi kerak.

**Iqtisodiy bilim asoslari** o'qituvchisi doimo o'z pedagogik mahoratini oshirib, uni san'at darajasiga etkazib borishi kerak. O'z fikrini tushunarli, ko'rgazmali ifodalay bilish, jahon va mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi voqealarga o'z munosabatini bildirishi, ta'lim berishga ijodiy yondashuvni rivojlantirib borishi kerak.

O'qituvchining ijodiy yondashuvi ukuvchi tomonidan iqtisodiyot nazariyasini o'rganishga ijodiy yondashuvining bevosita shartidir. Odatdagi ma'ruza darslarining an'anaviy tarzda, ilg'or pedagogik usullarsiz olib borilishi ukuvchidan faollik talab qilmaydi. Darsni o'zlashtirish ham osonday tuyuladi, fanga nisbatan qiziqish uyg'onmaydi. Muammoli holatlarning yaratilishi, aniq misollar yordamida iqtisodiy masalalarning echilishi, ukuvchini fanga qiziqtirish, uning faolligini oshirib, kengroq fikrlashga, maqsadga qarab intilishga, kerakli bilim va ko'nikmalar hosil qilishga yordam beradi.

Respublikamizda etakchi iqtisodchi olimlar tomonidan bu sohada munosib ishlar amalga oshirilmoqda. SHu bilan birga xalqaro andozalarga mos keluvchi mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarning yuqori iqtisodiy ta'lim darajasini ta'minlash, bu vazifani sifatli, samarali, tushunarli amalga oshirish iqtisodiyot **Iqtisodiy bilim asoslari** fanining asosiy uslubiy vazifasi hisoblanadi. Uni amalga oshirish o'qitish jarayonini texnologiyalashtirish, ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilishni zarur qilib qo'yadi.

—

### 1.3. Mavzuning o`quv maqsadlari.

O`quv maqsadlarini aniqlash, shakllantirish, turlash va tizimlashtirish, ketma-ket masalalar va savollar tarzida ifodalash o`qituvchi ishining eng murakkab va mas`uliyatli qismi hisoblanadi.

Maqsadlarni aniq belgilash va tizimlashtirish, o`qituvchi faoliyatining keyingi bosqichlariga yo`naltiruvchi omil sifatida xizmat qiladi. Tahsil oluvchilar ongiga etkaziladigan ta`lim maqsadlari ularni o`quv bilish faoliyatiga mo`ljall bo`ladi va ta`lim tarbiya jarayonida ularning ongliligi va faolligini oshiradi.

O`quv maqsadlarni ishlab chiqishning birinchi bosqichida o`qituvchi tayyorlanayotgan mutaxassisning moduli hisoblangan davlat ta`lim standartini o`rganish zarur. Undan so`ng o`quv rejasi o`rganilib, o`zi o`qitadigan o`quv predmetining boshqa umumta`lim, umumkasbiy va iqtisodiy turkum fanlari bilan aloqadorligi aniqlanadi. O`qituvchi shu yo`l bilan o`zi o`qitadigan o`quv predmetini o`qitishdan ko`zlangan umumiy maqsadini, mutaxassis faoliyatida uchraydigan muammoli vaziyatlarini aniqlashtirish imkoniyatiga ega bo`ladi. SHunday qilib, o`quv rejasiga kiritilgan har bir o`quv predmeti davlat standarti doirasida bo`lajak mutaxassislarda ma`lum bilim va malakalarni shakllantirishni ko`zda tutadi. Bularsiz mutaxassis o`ziga yuklatilgan vazifalarni to`laqonli bajara olmaydi.

O`quv maqsadlarni ishlab chiqishning ikkinchi bosqichida o`qituvchi xususiy maqsadlarni ishlab chiqadi. Bunda o`quv predmetining namunaviy dasturini tahlil etish asosida har qaysi bob, mavzuga tegishli maqsadlar aniqlanadi. Aniqlangan maqsadlarga binoan o`quv materialining mazmuni va o`zlashtirish rejasi dastur nomi bilan ataladigan darslik, o`quv qo`llanmasi va shu kabi adabiyotlardan aniqlanadi.

YUqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadiki, o`quv jarayoni har bir o`quv predmetining o`qitish maqsadlarining belgilashdan boshlanadi. CHunki har bir nazariy yoki amaliy mashg`ulot aniq maqsadlarni ko`zda tutadi. Agar o`quv maqsadlarini belgilamay mashg`ulot o`tkazilsa, uning mazmuni va didaktik tuzilmasi buziladi.

O`quv maqsadlarini belgilab, ma`lum ketma-ketlikni joylashtirish, tasniflash pedagogik taksanomiya deb yuritiladi. (Taksanomiya tushunchasi grekchadan olingan bo`lib, tartib bilan joylashtirish qonuni ma`nosini anglatadi.)

Taksanomiya o`rganilayotgan ob`ektlarning tabiiy aloqalar asosida tuziladigan ko`p pog`onali joylashtirishdir. Pedagogikada Amerikalik olim B.Blumning o`quv maqsadlari taksanomiyasi eng ko`p tarqalgan hisoblanadi. Bu taksanomiya quyidagi tartibga ega.

1.Bilish-

O`rganilayotgan materialni xotirada saqlab qolish va qayta xotirlashni ko`zda tutadi. Bunda ukuvchi o`zlashtirilgan material mazmun mohiyatini anglamaydi.

- |                   |   |
|-------------------|---|
| 2. Tushuntirish-  | O`rganilayotgan materialni mohiyati anglanadi, xulosa chiqarish imkoniyati mavjud bo`ladi. Tushuntirish darajasining ko`rsatkichi sifatida material mohiyatini izohlab berish, boshqa materiallar bilan aloqadorligini ko`rsatish kabilardan foydalaniladi. |
| 3. Qo`llash-      | O`zlashtirilgan dalillar, tushuncha, bilim va ish usullarini amaliyotga tadbiq etish qobiliyati.  |
| 4. Tahlil qilish- | O`zlashtirilgan yaxlit o`quv materialini qismlarga ajratish, bu qismlarning daraja va o`zaro nisbatlarini o`rgatish, qaytadan yaxlitlik xosil qilishni ko`zda tutadi  |
| 5. Sintez-        | O`zlashtirilgan alohida-alohida materialni umumlashtirib, yaxlit yangi tuzilma hosil qilishni ko`zda tutadi.  |
| 6. Baholash-      | Belgilangan maqsadlarni egallangan natijalar bilan qiyoslash orqali amalga oshirilganligi sababli eng yuqori daraja hisoblanadi.  |

O`quv maqsadlarni belgilashda tahsil oluvchi ukuvchi o`zini qanday holatda tutish lozimligi ifodalovchi so`z (fe`l) ishlatish zurrurki, u maqsadni aniq tushuntirishni ta`min etsin. Buning uchun o`z navbatida har bir mavzuga oid tayanch iboralarni alohida ko`rsatish kerak bo`ladi. Ajratib ko`rsatilgan tayanch iboralarning o`zlashtirish darajasini belgilab olish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu fe`llar darsning bir-biri bilan bevosita aloqador va munosabatda bo`lgan ta`limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini shakllantirishda o`z ifodasini topishi zurrur. Biz har bir mashg`ulot maqsadida qanchalik aniq belgilab olsak, unga erishish shuncha oson bo`lishi amaliyotda tasdiqlangan.

Amaliy xarakterdagi maqsadlarga erishishda quyidagi omillar o`z ta`sirini ko`rsatishi mumkin: shart-sharoit, tahsil oluvchining ongli munosabatlari, moddiy-texnik baza, vaqt va shu kabilar.

1. **Ta`limiy maqsad**- tahsil oluvchilar bilimi, ko`nikmasi va malakasida qanday yuksalishi bo`lishini ko`zda tutadi.

2. **Tarbiyaviy maqsad**- tahsil oluvchi shaxsida qanday sifat va fazilatlar tarkib topishi zarurligini belgilaydi.

3. **Rivojlantiruvchi(mantiqiy) maqsad**- tahsil oluvchilar qanday mantiqiy operatsiyalar va aqliy faoliyat usullarini o`zlashtirishlari hamda uning rivojlantiruvchi natijalarni ko`zda tutadi.

### **«Iqtisodiy bilim asoslari» fanining o`quv maqsadlari.**

#### **Dars maqsadi:**

- |              |  |
|--------------|--|
| 1. Ta`limiy: | Davlat oliy ta`lim standartlari ukuvchilariga javob bera oladigan mutaxassislar tayyorlash maqsadida ukuvchilarda <b>«Iqtisodiy bilim asoslari» fanini</b> |
|--------------|--|

**ukitishda interfaol usullarni kullash metodikasi** oid iqtisodiy bilimlarni takomillashtirish, hamda ko`nikmalarini rivojlantirish.

2. Rivojlantiruvchi:

**«Iqtisodiy bilim asoslari» fanini ukitishda interfaol usullarni kullash metodikasining** ahamiyatini ochib berish, talablarga uning ahamiyatli tomonlarini tushuntirish.

3. Tarbiyaviy:

Ukuvchilarning O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talabiga javob bera oladigan mustaqil sog`lom fikrlash qobiliyatiga ega bo`lgan etuk mutaxassis, ma`naviyatli komil inson etib tarbiyalash

4. Motivatsion:

O`quvchilarning o`quv jarayonida faollikka undash va mustaqil fikrlash, xulosalash qobiliyatlarini rag`batlantirish.

#### **1.4. Fanning interfaol o`qitish metodikasini ishlab chiqishda dastlabki shart-sharoitlar.**

Fanni o`qitishda interfaol usullarning kullanilishi pedogogikaning o`qitish qonuniyatlari, qoidalari, tashkil etish shakllari, amalga oshirish va natijalarini nazorat qilib, baholash metod hamda vositalarni o`zida mujassamlashtiruvchi tarmokdir. Har bir o`quv fani, o`qitish sohasi o`rgatishning vazifalari, mazmuni, metodlari va tashkil etish shakllari metodika asosida qurilgan.

Fanni interfaol usullarda o`qitish metodikasi bu turli usullar tizimi bo`lib, o`quv didaktik materiallardan foydalanish orqali belgilangan maqsadga erishish uchun nazariy va amaliy mashg`ulotlar paytida qo`llaniladigan usullar majmuasidir.

Kasbiy ta`lim metodikasi ijtimoiy hayotning ma`lum sohasini faoliyat ko`rsatish uchun zarur bo`lgan bilim, amaliy ish-harakat usullarini shakllantirish qonuniyatlari, qoidalari, shakl, metod va vositalari hamda mazmuni haqidagi pedogogikaning muhim tarmog`idir.

SHaroitlar tahlili quyidagi shart-sharoitlarni o`rganish bilan bog`liq:

- huquqiy
- texnik
- tashkiliy shart-sharoitlar

Huquqiy sharoitlarga **fan dasturi, o`quv rejasi, kalendar reja, baholash mezonlari, jurnal kiradi.**

Fanning o`quv dasturi-davlat hujjati bo`lib, fandagi nazariy va amaliy mashg`ulotlarning mazmuni, majburiy hajmi, ketma-ketligi va har bir mavzu bo`yicha ajratilgan soatlarni aniqlaydi. O`quv dasturlar namunaviy va ishchi turlarga bo`linadi.

Namunaviy ish dasturi – O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta mahsus ta`lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Ishchi o`quv dasturi-namunaviy ish dasturi asosida har bir o`quv yurtida tayyorlanadi, hamda o`quv yurtining o`quv ishlari bo`yicha o`rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

O`quv rejasi-bu davlat hujjati bo`lib, o`quv yurtida o`quv tarbiyaviy jarayonining mazmuni, hajmi turlari ketma-ketligi va muddatlarini ko`rsatadi.

Kalendar reja-fan bo`yicha o`tiladigan mavzularni rejalashtirish, hamda o`tilayotganligini tasdiqlovchi hujjat.

Baholash mezonlari.

O`zlashtirish ko`rsatkichi "a`lo" bahoga loyiq bo`lishi uchun:

- fan o`quv dasturida ko`rsatilgan mavzular bo`yicha mustaqil ish materiallarni to`liq izohlab bergan, unchalik ahamiyatga ega bo`lmagan xatolarga yo`l qo`ygan va bu xatoliklarni o`qituvchi ko`rsatmasi asosida tuza olgan holda;
- fanga qiziqishni namoyon etish;
- murakkab topshiriqlarni bajarishga intilishi hisobga olinadi.

-O`zlashtirish ko`rsatkichi "o`rta" baho bo`lganda:

- mavzu bo`yicha mustaqil ish materiallarini to`liq izohlab bergan, unchalik ahamiyati bo`lmagan xatolarga yo`l qo`ygan va bu xatolarni o`qituvchi ko`rsatmasi asosida tuzata olgan holda;

- mavzuga qiziqishi namoyon etilishi .

- murakkab topshiriqlarni bajarishga intilishi hisobga olinadi:

O`zlashtirish ko`rsatkichi "qoniqarli" baho bo`lganda:

- o`quv dasturida kutilgan mavzular bo`yicha mustaqil ish materiallarini to`liq izohlanmagan.
- Fanni o`rganishda qiziqishi pastligi, murakkab topshiriqlarni bajarishda intilish yo`qligi inobatga olinadi.

O`zlashtirish ko`rsatkichi "qoniqarsiz" baho bo`lganda:

- o`quv dasturiga kirgan mavzular bo`yicha mustaqil ish materiallarini to`liq bilmagan, tuzatib bo`lmaydigan xatoliklarga yo`l qo`ygan holda baholash maqsadga muvofiq.

Jurnal- ukuvchilar to`g`risida ma`lumot beradi va joriy, oraliq, yakuniy nazorat baholari qo`yiladi. Dars o`tilgan sana belgilanadi.

**Texnik shart-sharoitlarga** texnik moslamalar, o`qitish va o`rganish vositalari, ularning yaroqliligi tushuniladi.

"Iqtisodiy bilim asoslari" fanini o`tkazish uchun doska, ishga yaroqli videoproektlar, komp`yuter mavjud, auditoriya elektr toki bilan ta`minlangan, havo bosimi normal holatda bo`lishi kerak.

### **Tashkiliy shart-sharoitlar.**

Fan bo`yicha bilim, malaka va ko`nikmalarni egallashi uchun dars o`tiladigan sinf xonasining tayyorligi ya`ni sinf xonasi yorug`, toza, stol va stullar etarli, doska, bo`r bo`lishi kerak. SHu bilan birga darsni o`tishda didaktik vositalar va tarqatma materiallar tayyorlanishi zarur.

"Iqtisodiy bilim asoslari" fanidan ma`ruza o`tiladigan o`qitish joyi o`quv xonasi toza va yorug`, normal havo haroratida, stol va stullar etarli.

- nazariy dars belgilangan reja, dars jadvali va belgilangan auditoriya va o`quv korpusida o`tkazildi.
- Tashkiliy hujjatlardan kalendar reja, dars jadvali tasdiqlangan.

## 1.5. «IKTISODIY BILIM ASOSLARI» FANI bo'yicha ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishning kontseptual asoslari

Ta'lim texnologiyasi insoniylik tamoyillariga tayanadi. Falsafa, pedagogika va psixologiyada bu yo'nalishning o'ziga xosligi ukuvchining individualligiga alohida e'tibor berish orqali namoyon bo'ladi. SHulardan kelib chiqqan holda "Iqtisodiy bilim asoslari" fanining ta'lim texnologiyalarini ishlab chikishda quyidagi asosiy kontseptual yondashuvlarga e'tibor berish kerak.

**Ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi.** O'z mohiyatiga ko'ra bu yo'nalish ta'lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning to'laqonli rivojlanishini ko'zda tutadi. Bu esa Davlat ta'lim standarti talablariga rioya qilgan holda o'quvchining intellektual rivojlanishi darajasiga yo'naltirilib qolmay, uningning ruhiy-kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni ham anglatadi.

• **Tizimli yondashuv.** Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam qilishi zarur: jarayonning mantiqiyliigi, undagi qismlarning o'zaro aloqadorligi, yaxlitligi.

• **Amaliy yondashuv.** SHaxsda ish yuritish xususiyatlarini shakllantirishga ta'lim jarayonini yo'naltirish; o'quvchi faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha layoqati va imkoniyatlarini, sinchkovligi va tashabbuskorligini ishga solishni shart qilib qo'yadi.

• **Dialogik yondashuv.** Ta'lim jarayonidagi ishtirokchi sub'ektlarning psixologik birligi va o'zaro hamkorligini yaratish zaruratini belgilaydi. Natijada esa, shaxsning ijodiy faolligi va taqdimot kuchayadi.

• **Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.** Demokratiya, tenglik, sub'ektlar munosabatida o'qituvchi va o'quvchining tengligi, maqsadini va faoliyat mazmunini birgalikda aniqlashni ko'zda tutadi.

• **Muammoli yondashuv.** Ta'lim jarayonini muammoli holatlar orqali namoyish qilish asosida o'quvchi bilan birgalikdagi hamkorlikni faollashtirish usullaridan biridir. Bu jarayonda ilmiy bilishning ob'ektiv ziddiyatlarini aniqlash va ularni hal qilishning dialektik tafakkurni rivojlantirish va ularni amaliy faoliyatda ijodiy ravishda qo'llash ta'minlanadi.

• **Axborot berishning eng yangi vosita va usullaridan foydalanish,** ya'ni o'quv jarayoniga komp'yuter va axborot texnologiyalarini jalb qilish. YUqoridagi kontseptual yondashuv va "Iqtisodiy bilim asoslari" fanining tarkibi, mazmuni, o'quv axborot hajmidan kelib chiqqan holda o'qitishning quyidagi usul va vositalari tanlab olindi.

• **O'qitish usullari va texnikasi:** muloqot, keys stadi, muammoli usul, o'rgatuvchi o'yinlar, "aqliy hujum", insert, "Birgalikda o'rganamiz", pinbord, ma'ruza (kirish ma'ruzasi, vizual ma'ruza, tematik, ma'ruza-konferentsiya, aniq holatlarni echish, avvaldan rejalashtirilgan xatoli, sharhlovchi, yakuniy).

• **O'qitishni tashkil qilish shakllari:** frontal, kollektiv, guruhiiy, dialog, polilog va o'zaro hamkorlikka asoslangan.

- **O`qitish vositalari:** odatdagi o`qitish vositalari (darslik, ma`ruza matni, tayanch konspekti, kodoskop)dan tashqari grafik organayzerlar, komp`yuter va axborot texnologiyalari.
- **O`zaro aloqa vositalari:** nazorat natijalarining tahlili asosida o`qitishning diagnostikasi (tashxisi).
- **Boshqarishning usuli va vositalari.** O`quv mashg`ulotini texnologik karta ko`rinishida rejalashtirish o`quv mashg`ulotining bosqichlarini belgilab, qo`yilgan maqsadga erishishda o`quvchi va o`qituvchining hamkorlikdagi faoliyatini talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarini aniqlab beradi.
- **Monitoring va baholash.** O`quv mashg`uloti va butun kurs davomida o`qitish natijalarini kuzatib borish, o`quvchi faoliyatini har bir mashg`ulot va yil davomida reyting asosida baholash.

**Ma`ruza mashg`ulotini tashkil etishning shakl va xususiyatlari:**

№	Ma`ruza shakllari	O`ziga xos tavsiflovchi xususiyatlari
	Kirish ma`ruzasi	Fan to`g`risida yaxlit tasavvur hamda ma`lum yo`nalishlar beradi. Pedagogik vazifasi: o`quvchini ushbu fanning vazifalari va maqsadi bilan tanishtirish, kasbiy tayyorgarlik tizimida uning o`rni va rolini belgilash, kursning qisqacha sharhini berish, fanning yutuqlari va taniqli olimlar nomlari bilan tanishtirib, kelajakdagi izlanishlarning yo`nalishini belgilash, tavsiya qilingan o`quv-uslubiy adabiyotlar tahlilini berish, hisobot va baholashning muddatlari va shakllarini belgilash.
	Ma`ruza axborot	Ma`ruzaning odatdagi an`anaviy turi. Pedagogik vazifasi: o`quv ma`lumotlarini bayon qilish va tushuntirish.
	SHarhlovchi ma`ruza	Bayon qilinayotgan nazariy fikrlarning o`zagini, ilmiy tushunchalar va butun kurs yoki bo`limlarining kontseptual asosini tashkil etadi. Pedagogik vazifasi: ilmiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish, fanlarning o`zaro aloqadorligini ochish.
	Muammoli ma`ruza	YAngi bilimlar qo`yilgan savol, masala, holatning muammoliligi orqali beriladi. Bunda o`quvchining o`qituvchi bilan birgalikdagi bilish jarayoni ilmiy izlanishga yaqinlashdi. Pedagogik vazifasi: yangi o`quv axborotining mazmunini ochish, muammoni qo`yish va uni echimini topishni tashkil qilish, hozirgi zamon nuqtai nazarlarini tahlil qilish.
	Vizual ma`ruza	Ma`ruzaning mazkur shakli vizual materiallarni namoyish etish hamda ularga aniq va qisqa sharhlar berishga qaratilgan. Pedagogik vazifasi: yangi o`quv ma`lumotlarini

		o`qitishning texnik vositalari va audio, videotexnika yordamida berish.
	Binar (ikki kishilik) ma`ruza	Bu ma`ruza ikki o`qituvchining yoki ikkita ilmiy maktab namoyandasining, o`qituvchi-talabaning dialogidan iborat. Pedagogik vazifasi: yangi o`quv ma`lumotlarining mazmunini yoritish.
	Avvaldan rejalashtirilgan xatoli ma`ruza	Xatolarni izlashga mo`ljallangan mazmuni va uslubiyatida, ma`ruza oxirida tinglovchilar tashxisi o`tkaziladi va qilingan xatolar tekshiriladi. Pedagogik vazifasi: yangi materiallar mazmunini yoritish, berilgan ma`lumotni doimiy nazorat qilishga talabalarni rag`batlantirish
	Ma`ruza konferentsiya	Avvaldan qo`yilgan muammo va dokladlar tizimi (5-10 minut)dan iborat ilmiy-amaliy dars sifatida o`quv dasturi chegarasida o`tiladi. Dokladlar birgalikda muammoni har tomonlama yoritishga qaratilishi kerak. Mashg`ulot oxirida o`qituvchi mustaqil ishlar va talabalarning ma`ruzalarga yakun yasab, to`ldirib, aniqlashtirib xulosa qiladi. Pedagogik vazifasi: yangi o`quv ma`lumotning mazmunini yoritish.
	Maslahat ma`ruza	Turli stsenariylar yordamida o`tishi mumkin. Masalan, 1) «Savol-javob» - ma`ruzachi tomonidan butun kurs bo`yicha yoki alohida bo`lim bo`yicha savollarga javob beriladi. 2) «Savol-javob-diskussiya» - izlanishga imkon beradi. Pedagogik vazifasi: yangi o`quv ma`lumotni o`zlashtirishga qaratilgan.

### **1.6. «Iqtisodiy bilim asoslari» fanidan ma`ruza va seminar mashg`ulotlarida o`qitish texnologiyasi**

#### **1- MAVZU: «IKTISODIY BILIM ASOSLARI» fanining predmeti va bilish usullari**

#### **Ma`ruza mashg`ulotining o`qitish texnologiyasi**

Vaqt – 4 soat	Talabalar soni: 25nafar
O`quv mashg`ulotining shakli	Kirish, vizual ma`ruza
Ma`ruza mashg`ulotining rejasi	1. Iqtisodiyot va uning bosh masalasi. 2. «Iqtisodiy bilim asoslari» fanining sifatida shakllanishi.

	3. « <b>Iktisodiy bilim asoslari</b> » fanining predmeti. 4.« <b>Iktisodiy bilim asoslari</b> » fanining vazifalari va boshqa fanlar bilan o`zaro bog`liqligi.
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi:</i> « <b>Iktisodiy bilim asoslari</b> » fanining predmeti va bilish usullari, rivojlanish tarixi boshqa fanlar bilan aloqasi to`g`risida bilimlarni hamda to`liq tasavvurni shakllantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - « <b>Iktisodiy bilim asoslari</b> » tushunchasi bilan tanishtirish va faning predmetini tushuntirish; - ilk iqtisodiy qarashlar bilan hamda ularning namoyondalari bilan tanishtirish; - iqtisodiyotning bosh masalasini tavsiflash;	<i>O`quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - « <b>Iktisodiy bilim asoslari</b> » fanining predmetini izohlaydi; - iqtisodiyot, ehtiyoj tushunchalariga ta`rif beradi; - iqtisodiy oqimlarni ifodalaydi va ularning asoschilarini aytib beradi; - iqtisodiyotning bosh masalasiga tavsif beradi; - « <b>Iktisodiy bilim asoslari</b> » fanining boshqa fanlar bilan o`zaro aloqasini va uni fanlar ichida tutgan o`rnini tavsiflaydi.
O`qitish uslubi va texnikasi	Vizual ma`ruza, blits-so`rov, bayon qilish, klaster, “ha-yo`q” texnikasi
O`qitish vositalari	Ma`ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar.
O`qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
O`qitish shart-sharoiti	Proektor, komp`yuter bilan jihozlangan auditoriya

## **NAZARIY MASHGULOTNI UKITISHDA DARS ISHLANMASI.**

### **MAVZU: Ish haqi va mehnat munosabatlari**

**Ma`ruza № 5**

Ta`lim shakli - ma`ruza

*Uqish vahti – 2 soat*

*O`quvchilar soni 25-30 kishi*

Ukuv mashgulotning shakli

Nazariy mashgulotda «Aqliy hujum» uslubining qo`llanishi

Ma`ruza rejasi

1. Mehnat bozori va ishchi kuchining tovar sifatida qiymati.  
2. Ish xaqining mohiyati va turlari.  
3. Ish haqi belgilashda kasaba uyushmalarining.

Ukuv maksadi	Mehnat bozori va ish haqi tugrisidagi bilimlarni shakllantirish, mavzu yuzasidan bilimlarni mustaxkamlash, chukurlashtirish, kengaytirish
Ukituvchi faoliyati	Mehnat bozori, mehnat birjasi, mehnat kontrakti, ish kuchi, ish haqi, nominal ish haqi, real ish haqi, vaqtbay ish haqi, ishbay ish haqi, kasaba uyushmalari tushunchalari to`g`risidagi bilimlarni rivojlantirish.
Pedagogik masalalar	Ukuv faoliyati natijalari (ukuvchi faoliyati)
-Mehnat bozori va ishchi kuchining tovar sifatida qiymati tushunchasi va uning ahamiyati bilan tanishtirish;	-Mehnat bozori va ishchi kuchining tovar sifatida qiymati tushunchasi va uning ahamiyati tugrisida bilimga ega buladilar
- Ish xaqining mohiyati va turlari bilan ukuvchilarga tushuntirib berish;	- Ish xaqining mohiyati va turlari haqidagi bilimlarga ega bo`ladilar
- Ish haqi belgilashda kasaba uyushmalarining ahamiyatini kengroq qilib tushuntirib berish.	- Ish haqi belgilashda kasaba uyushmalarining ahamiyati haqidagi fikrlarga ega bo`ladilar
Ta`lim metodlari	Ma`ruza (insert) akliy xujum, va xokazo
Ta`lim shakllari	Guruxlarda, jamoa bulib yoki individual ishlash
Ta`lim vositalari	Ma`ruza matni, ukuv adabiyotlari va jixozlar, tarqatma materiallar
Ta`lim sharoitlari	Auditoriya xolati texnik jixozlangan va guruxlarda ishlashni tashkil etish uchun moslashtirilgan
Baxolash	Og`zaki nazorat reyting tizimi buyicha:

**O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi**

<b>O`quv mashg`ulotini amalga oshirish bosqichlari va vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O`qituvchi</b>	<b>Ukuvchilar</b>
<b>Tayyorlov bosqichi</b>	Kasbiy yo`nalish o`quv rejasi, guruh jurnali, fan dasturi, kalendar` reja, baholash mezonlari, o`quv xonasi, texnik moslamalar, o`qitish va o`rganish vositalari	O`tgan darsda uyda bajariladigan berilgan topshiriqlarga tayyorlanib, mavzu bo`yicha yangiliklar to`plab o`quv xonasiga kechikmasdan kelish
<b>1- Bosqich O`quv mashg`ulotiga kirish (10 daqiqa)</b>	1.Salomlashish, davomatni tekshirish, yangi mavzuning maqsadini, mashg`ulotni o`tkazish rejasini ma`lum qilish: <b>“Ish haqi va mehnat munosabatlari”</b> o`tilgan mavzuni og`zaki savol- javoblar bilan takrorlash:  1.Mehnat bozori haqida fikrlaringiz?  2.Ishhaqining turlarini aytib bering?  <b>2. Mavzu bo`yicha tayanch iboralar va tushunchalarni aytib o`tish:</b> Mehnat bozori tushunchasini bilish; Mehnat birjasi tushunchasini	1.Ma`ruzachini tinglaydilar, yozib oladilar, aniqlashtiradilar, savollar beradilar

	<p>bilish;  Mehnat kontraktini tuzishni o`rganish;  Ish kuchini bilish;  Ish haqini tushunish;  Nominal ish haqini bilish;  Real ish haqini bilish;  Vaqtbay ish haqini o`rganish;  Ishbay ish haqini bilish;  Kasaba uyushmalarini tushunish.  1.3. Mashg`ulot o`tkazish tartibi, o`quv faoliyatini baholash ko`rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtirish</p>	
<p><b>2-bosqich</b>  <b>Asosiy bosqich</b>  <b>( 50 daqiqa)</b></p>	<p>2.1 Aqliy hujum shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni faollashtirish:  -Muammoli savollar beradi: Mehnat bozori nima?  2.2. Mavzu bo`yicha bilimlarni shakllantirish jarayonni tashkil etish;  -muhokama uchun savollar berish:  1.Ish haqini tushuntiring?  2.Ish haqining turlarini ayting?  3.Kasaba uyushmalarining rolini aytib bering?  Mashg`ulot rejasi bo`yicha ma`ruza o`qiladi. Ma`ruza plakat va slaydlar orqali tushuntiriladi.  -ukuvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini egallash bo`yicha ma`ruza oxirida test topshiriqlarini tarqatish  -ukuvchilarning o`rganish faoliyatini boshqaish,topshiriqni bajarish boshlanishini va tugallanishini e`lon qilish,</p>	<p>2.1. savollarga javob beradilar</p> <p>2.2. YOzib oladilar , muhokamada faol ishtirok etadilar</p> <p>Individual va guruhlarda ishlaydilar</p> <p>Topshiriq natijalari bo`yicha taqdimot o`tkazadilar</p>

3-bosqich	3.1. YAkuniy xulosalar qilinadi.	Savollar beriladi.
YAkuniy bosqich (20 daqiqa)	Mashg`ulot natijalari ketma-ket izoxlanadi. Kelgusida o`rganilgan bilimlar ko`llanilishi mumkin bo`lgan soxalar qayd etiladi.	
	3.2. Ukuvchilar faoliyati taxlil etiladi va baxolanadi. Qo`yilgan maqsadga	Tinglaydilar.

erishish darajasi ta`kidlanadi.

3.3. Mustaqil ishlash uchun Topshiriqlarni yozib topshiriqlar beriladi. oladilar.

### **Ma`ruza darslarida “Aqliy hujum” usulining qo`llanilishi.**

Keyingi yillarda pedagogika fani va amaliyotida ta`lim oluvchilarning mustaqil ishlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda faolashtirishga yo`naltirilgan faol usullarni ishlab chiqish ulardan foydalanishga katta e`tibor berilmoqda. SHunday samarali usullarga muammoli o`qitish, modulli o`qitish kiradi.

**Aqliy hujum** - g`oyalarni generatsiya qilish usuli. Qatnashchilar birlashgan holda qiyin muammoni echishga harakat qiladilar. Uni echish uchun shaxsiy g`oyalarini ilgari suradilar (generatsiya qiladi)

#### **“Aqliy hujum” usulining qoidalarini :**

\*Fikr va g`oyalar hech qanday cheklanmagan holda iloji boricha qattiqroq aytilishi kerak;

\*Bildirilgan fikr va g`oyalar takliflar berish to`xtatilmaguncha muhokama qilinmaydi;

\*Bildirilgan har qanday fikr va g`oyalar hisobga olinadi;

\*Qancha ko`p g`oya va fikrlar bildirilsa. SHuncha yaxshi;

\*Bildirilgan g`oya va fikrlarni yanada kengaytirish mumkin bo`ladi;

\*Barcha aytilgan takliflar yozib boriladi;

\*Takliflarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi

#### **O`quv mashg`ulotini “Aqliy hujum” usulini qo`llab o`tishning ishlab chiqish qoidalarini:**

-O`zaro baholash va tanqidga o`rin yo`q;

-Taklif etilayotgan g`oyalar fantastik va g`aroyib bo`lsa ham ularni baholashdan saqlanib, hammaning fikr bildirishiga ruxsat etiladi;

-Tanqid qilmang, barcha bildiruvchi fikrlar teng qimmatli;

-So`zga chiqqan kishining gapini bo`lmang!

-E`tirozlardan saqlanib!

-Qancha ko`p fikr aytilsa, shuncha yaxshi yangi va qimmatli fikr paydo bo`lishi ehtimoli ko`proq.

-Fikrlar takrorlansa, xafa bo`lmang va uyaltirmang!

-Tasavvur qilishga ruxsat bering!

### **1.6«Iqtisodiy bilim asoslari» fanini o`qitishda interaktiv usullar va ularning amalda kullanilishi.**

Mamlakat iqtisodiyotida modernizatsiya jarayoni kechayotgan bir vaktida yangi davr o`qitish tizimiga iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy omillarning ta`siri ostida yangicha talablar qo`ymoqda. Bu o`zgarishlar o`qitishning mazmuni, uslublari, moddiy-texnika bazasi, boshqarish va tashkil etish yo`llari, iqtisodiy dastaklariga o`z ta`sirini ko`rsatadi. Bunday asosiy vazifa – shaxsning mustaqilligi va ijodiy faolligini (from teaching to leaning) rivojlantirish hamda shu orqali o`quvchi-talabanning o`z intellektual va estetik salohiyatini ro`yobga chiqarish, o`zgaruvchan dunyoga moslashish qobiliyatini har tomonlama taraqqiy ettirishga e`tibor qaratiladi. SHaxsning yaratuvchanlik va ijodiy qobiliyatining rivojlanishi pedagogik jarayonning o`zgarishi asosida kechadi, ya`ni ukuvchi o`qitish ob`ekti emas, balki pedagog tomonidan qo`yilgan vazifalarning echimini topishdagi teng huquqli sub`ektga aylanadi.

Bu muammolarni hal qilishda pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish yoki dars jarayonida interfaol usullarning qo`llanilishi ijobiy natija beradi. Tadqiqotchilar izlanishlariga asosan, kishilar xotirasida ma`lumot sifatida qilayotgan ishining 90%i, ko`rayotganining 50%i, eshitayotganining 10%i qoladi. SHuning uchun ham ukuvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlashda, amaliy mashg`ulotlarda zamonaviy ta`lim texnologiyalarining qo`llanilishi ijobiy samara beradi.

Zamonaviy ta`lim texnologiyalarini ishlab chiqishda quyidagi asosiy tamoyillarga e`tibor berilishi tavsiya etiladi

1. Zamonaviy ta`lim texnologiyalarini ijtimoiy buyurtma sifatida mavjud davlat talablariga va bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish.
2. Zamonaviy ta`lim texnologiyalarini milliy ta`lim talablari asosida ishlab chiqish.
3. Zamonaviy ta`lim texnologiyalarini ilmiylik tamoyili asosida ishlab chiqish.
4. Zamonaviy ta`lim texnologiyasida nazariya bilan amaliyotning o`zaro alaqadorligini ta`minlash.
5. Zamonaviy ta`lim texnologiyalarining insonparvarlik va demokratik xarakterda bo`lishini ta`minlash.
6. Barcha zamonaviy ta`lim texnologiyalari ta`lim oluvchining mustaqil va ijodiy ishlash, kelajakda kasbiy va hayotiy muammolarini mustaqil echish ko`nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga yo`naltirilishi kerak.
7. Interfaol ta`lim metodlaridan unumli foydalanish
8. Ta`lim maqsadlarining aniq qo`yilishi va erishiladigan o`quv natijalari pedagogik vazifalar shaklida ifodalanishi kerak.

Ta'lim tizimida interfaol usullarning foydalanilishi ukuvchilar tomonidan axborotlarni uzlashtirib olish faoliyatini tashkil kilishning maxsus shaklidir. Interfaol utishining moxiyati ukuv jarayonini tashkil kilinishida bulib, bunda barcha talabalar bilim olish jarayoniga jalb kilingan buladilar, ular uzlari uylagan narsalar xususida tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega buladilar. Ukuv materialini uzlashtirishga xar bir shaxs uz ulushini kushadi, bilimlar, goyalar, faoliyat usullari bilan almashinuv jarayoni kuzatiladi.

Talim tizimida interfaol usullarning foydalanilishi bozor iktisodiyoti sharoitida muxim urin tutishini ta'kidlash urinlidir, chunki bu usullar insonning umumiy kamoloti uchun zarur bulgan ijtimoiy kunikmalarni rivojlantiradi. Interfaol usullarning quyidagi turlari mavjud:

## **O`QITISH TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI**

Quyidagi jadvalda jaxon ta'limi amaliyotida qo'llanilayotgan asosiy o`qitish texnologiyalari va metodlari keltirilgan

<b>O`qitish texnologiyalari</b>	<b>Uqitishning interfaol usullari</b>
1. O`yinli texnologiyalar.	1.Motivatsiya.
2. Muammoli o`qitish texnologiyasi.	2.Guruhiy ishlash.
3. Tabaqalashtirilgan o`qitish texnologiyasi.	3.Munozara.
4. Individuallashtirilgan o`qitish texnologiya si.	4.Mashqlar.
5. Dasturlashtirilgan o`qitish texnologiyasi.	5.Ishbilarmon o`yinlari yoki rolli o`yinlar.
6. Komp'yuterli o`qitish texnologiyasi.	6.Muammoli vazifalar.
7. Modulli o`qitish texnologiyasi.	7.Topshiriq usuli.
8. Keys stadi o`qitish texnologiyasi.	8.Insert
9. Kreativ o`qitish texnologiyasi.	9.Piramida.
10. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi.	10.DjigSo(Mozaika)usuli.
11. To`liq o`zlashtirish texnologiyasi.	11.Muhokama guruhlari.
12. Tizimli faoliyat yondashuvi asosida o`qi- tish texnologiyalari.	12.CHog'ishma guruhlar
13. Fan bo`yicha faoliyat yondashuvi asosida o`qitish texnologiyalari	.13.Aqliy hujum.
	14.Stimulyatsiya.
	15.Suqrot texnikasi.
	16.Yo`naltiruvchi matn.
	17.Video usul
	.18.Kitob bilan ishlash.
	19.Laboratoriya usuli.
	20.Suhbat.
	21.Pinbord.
	22.Indi- dividual topshiriqlar.
	23.Loyiha.
	24.Blum savollari.
	25.Sinkveyn (axborotni yig'ish).
	26.Klaster.
	27.Kubik.
	28.Grafik tashkilotchilar.
	29.Venn diagram masi.

	<p>30.Zig-zag-1.  31.Zig-zag-2.  32.“Bilaman-bilishni xohlayman-bilib oldim”  (B-B-B).  33.Ikki qismli kundalik.  34.Esse.  35.Asoslovchi esse.  36.Texnik diktant.  37.Taqriz.  38.Portfolio  39. Sinektika metodi.  40.Mojaro metodi.  41. Dumaloq stol metodi.  42.“Ruchka stol o`rtasida”.  43.Rotatsiya metodi bilan fikrlarni ko`rib  chiqish.  44.Davralar.  45.“Galereyani aylanish”  . 46.“Akademik munozara”.  47. “Qor bo`ron”.  48. “Asalari galasi”.  49.Guruh dinamikasi.  50. Diskret dinamika.  51.Kosa.  52.“Dumalov-chi qor uyumi” tamoyili bo`yicha  shug`ullanish.  53.“Sindikat”.  54.“Akvarium”.  55. Munozara – ma`ruza.  56. Ajurli arra.  57.Menyu.  58. Debat.  59.Tanqidiy fikrlash.  60.Qarorlar shajarasi  61. O`rtoqlik sudi.  62. Adolat o`lkasiga sayohat.</p>
--	--

### Uqitishda interfaol usullarining kiskacha sharxi.

#### - Motivatsiya usuli.

Mashg'ulotlar talabalar bilan qiziqarli, hattoki, darsga taalluqli bo`lmagan mavzular to`g`risidagi suhbat bilan boshlanishi lozim. Iloji bo`lsa, darsga bog`liq bo`lgan mavzular yuzasidan suhbatni boshlash kerak. Masalan, qiziqarli kashfiyot yoki yangilik tanlanishi mumkin. Bularning barchasi birinchi dars mobaynida talabalarning kayfiyatiga, shu sohaga qiziqishiga yoki keyingi darslarda talabalar o`rganadigan faniga e`tiborini qaratishga yordam beradi.

Agar, dars birinchi bor yangi o`quv guruhida o`tilayotgan bo`lsa, o`qituvchi qisqacha o`zini tanishtirib o`tib, talabalarga ham o`zlarini tanishtirish imkoniyatini berish kerak. Bu talabalarda ishonch tug`diradi, talabalar o`zlariga bildirilayotgan hurmatni his qiladilar. Nazariy fan maqsadini bayon etish orkali motivatsiya va muayyan mavzuga kirish amalga oshiriladi. Intrinli (ichki) va ekstrinli (tashqi) motivatsiya uchun sabab va argumentlar topishga harakat qilish lozim. Motivatsiya qilish bilan o`qish va o`rganishga bo`lgan tayyorlik uchun shart-sharoit yaratiladi

- **Guruhiy ishlash.** O`qitish jarayonida guruh bo`lib ishlash shaklining ahamiyati tobora oshib bormoqda. Fanlar bo`yicha nazariy bilimlarni berishda va amaliy mashg`ulotlarni o`tkazishda guruhiy ishlar olib borilishi mumkin. Bu borada barcha talabalar bir necha kichikroq o`quv guruhlariga taqsimlanadi va bu guruhlar mustaqil ishlaydilar. Kichik guruhlarning ish natijalari keyinroq butun guruh doirasida muhokama qilinishi mumkin.

Guruhiy ishlar maxsus bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko`nikmalar o`rganilishi kerak bo`lganda, shuningdek talabalarda mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo`llaniladi. Bir nechta talabalar birgalikda ishlagan paytda, ularning shaxsiy xususiyatlari va xarakterlari orasida o`zaro hamkorlik vujudga keladi. SHuning uchun guruhiy ish tashkil qilish ko`ra murakkabroqdir.

Guruhli bo`lib ishlashda ikkita holat farqlanadi:

- bir xil mavzuda olib boriladigan guruh ishi;
- bir xil mavzuda olib boriladigan guruh ishi

- **Munozara** usuli jarayonida yuzaga keladigan bahslashish fikrlashning ifodasi bo`libgina qolmay, shakllanib kelayotgan shaxs o`zining biror narsani hal etish, mustaqillikda kattalar bilan teng xuquqli ekanligini yoqlash ehtiyojidir. Dars jarayonidagi bahs chog`ida o`qituvchi talabalar bilan baravar haqiqat izlovchisi bo`lib harakat qiladi. Ana shu bahsda u o`z bilimini namoyish etadi, keng fikrlaydi, fikrlarni dalillar bilan asoslaydi, bu fazilatlar esa talabalar o`rtasida o`zaro katta hurmat uyg`otadi. Bahs jarayonida har bir talabaning «shaxsiy fikri», o`z mavqeini ifodalash va asoslash malakasi yuksak qadrlanadi.

- **Aqliy hujum.** Bu topshiriqning maqsadi iloji boricha ko`proq ijodiy fikrlarni yuzaga keltirishdir. Istalgan fikrlar qabul qilinadi. Yig`ilgan fikrlardan qay birini kelgusida ishlatishni butun guruh hal qiladi.

**O`quv mashg`ulotni “Aqliy hujum” usulini qo`llab o`tishning ishlab chiqish qoidalari.**

- O`zaro baholash va tanqidga o`rin yo`q.
- Taklif etuvchi g`oyalar fantastik va g`aroyib bo`lsa, ham ularni baholashdan saqlang hammaning fikr bildirishiga ruxsat etiladi.
- Tanqid qilmang barcha bildiriluvchi fikrlar teng qimmatli.
- So`zga chiqqan kishining gapini bo`lmang!
- E`tirozlardan saqlang!
- Qancha ko`p fikr aytilsa, shuncha yaxshi yangi va qimmatli fikr paydo bo`lishi ehtimoli ko`proq.
- Fikrlar takrorlansa xafa bo`lmang va uyaltirmang!
- Tasavvur qilishga ruxsat bering!
- Bu muammo faqat ma`lum usullar bilan hal etishi mumkin deb o`ylamang.

- **Videosul** – axborotni ko`proq ko`rgazmali o`zlashtirishga asoslangan bo`lib, unda kineskop, kodoskop, proektor, kinoapparat, o`quv televideniesi, videomagnitafon, axborotni displeyda aks ettiruvchi komp`yuterlardan foydalaniladi O`quv jarayonida

videousuldan foydalanish, sizning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni unumli echishingizni ta'minlaydi:

- yangi bilimlarni bayon etish, ya'ni juda sekin kechadigan jarayonlar bilan tanishish, bevosita kuzatish mumkin bo'lmagan (o'simliklar o'sishi, suyuqlikda diffuziya hodisasi va h.k.), shuningdek, tez sodir bo'ladigan jarayonlar, bevosita kuzatishlar hodisalarning mohiyatini ochib bera olmagan holda (qayishqoq tanalarning urilishi, moddalarning kristallanishi va h.k.) qo'llaniladi;
- murakkab mexanizmlar va mashinalarning ishlash tamoyillarini dinamikada tushuntirish;
- turli xil ish faoliyatini bajarish algoritmini tushuntirish;
- chet tili darslarida o'ziga xos til muhitini yaratish;
- videohujjatlarni taqdim etish;
- mashq qilish ishlarini bajarish, jarayonlarni modellashtirish, kerakli o'lchamlarni olib borish;
- o'quv-mashq va tadqiqot ishlarini olib borish uchun ma'lumotlar bazasini (bankini) yaratish;

ta'limni tashkil qilishga differentsiyalashgan yondoshuvni tashkil qilish va b.

**“Bilaman – bilishni xoxlayman – bilib oldim”(B - B - B).** matnni interfaol o'qitish – o'zlashtirish usularidan biri bo'lib, u ham insert usuli kabi jadval ko'rinishida bajariladi va u quyidagicha qo'llaniladi: talabalarga biror mavzu e'lon qilinadi. Bu to'g'rida ular ma'lum bo'lgan axborotlarni jadvalning “bilaman” qismiga, mavzu bo'yicha yana qanday ma'lumotlarni bilishni xoxlashsa, ularni jadvalning “bilishni xoxlayman” qismiga yozadilar. So'ngra, ularga mavzuga oid matn tarqatiladi. Ular mikroguruhlar tarkibida matnni mustaqil o'zlashtirib, jadvalning “bilib oldim” qismini to'ldiradilar. Har bir mikroguruh sardori (vakili) tuzilgan jadvallarni taqdim qiladilar. Jadvalning barcha qismlari taqqoslanib, talabalarda mavjud bo'lgan va qo'shimcha o'zlashtirilgan axborotlar taqqoslanib, munozara qilinadi hamda mavzuning o'zlashtirilganligi tahlil qilinadi.

### **Pinbord (inglizchadan: pin-mustahkamlash; board-doska)**

Bu o'qitish uslubining mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan bog'lanib ketadi. Uning afzallik funksiyalari – rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifadir: talabalarda muloqat yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi.

### **Loyihalar usuli**

Loyihalar usuli bilim va malakalarni, tahlil qilish va baholashni amaliy qo'llashni nazarda tutuvchi ta'limning majmuaviy usulini amalga oshiradi. Boshqa usullarga qaraganda, bu usulda talabalar rejalashtirishda, tashkil qilishda, tekshirishda, tahlil qilishda va bajarilgan ishning natijalarini baholashda ko'proq ishtirok etadilar.

Loyihalar usulida ta'lim berishda faqat natijalar emas, balki jarayonning o'zi ko'proq qimmatliroqdir. Loyiha individual bo'lishi mumkin, lekin, odatda har bir loyiha o'quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir.

Loyiha bir fanga oid, fanlar orasida yoki fandan tashqari bo'lishi mumkin.

Loyiha ustida ishlash jarayonida, sizning faoliyatingiz quyidagilardan iborat bo'ladi:

- talabalarga axborot qidirishga yordam berish;

- o`zingiz axborot manbai bo`lishingiz;
- butun jarayonni muvofiqlashtirishingiz;
- talabalarni quvvatlashingiz va taqdirlashingiz;
- uzluksiz qaytar aloqani qo`llab-quvvatlashingiz.

Loyihali ta`lim berish o`quv jarayonini aktuallashtiradi, chunki u:

- shaxsga orientirlangan;
- juda ko`p didaktik yondashuvlardan foydalaniladi;
- o`zini-o`zidan motivlaydigan, bu ishga qiziqish va jalb qilinishni uning bajarilishiga qarab ortishi demakdir;
- o`zining va o`zgalarning tajribasidan kelib chiqqan holda va aniq ishda o`rganishga imkon beradi;

o`z mehnatlari samarasini ko`rib turgan talabalarga qoniqish keltiradi.

**1-ilova.**

### B./ BX. /B texnikasini qo`llash qoidalari

t/r	№ Mavzu savoli	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim
1	2	3	4	5
1.	Aylanma mablag			
2.	Me`erlashgan Aylanma mablag			
3.	Me`erlashmagan Aylanma mablag			
4.	Aylanma mablaglarning aylanish tezligi			

### 3-ilova. "Insert usuli"

**Insert** - samarali o`qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o`qib-o`rganishda yordam beradi. Bunda ma`ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar

oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o`qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o`z fikrini ifodalaydi.

### Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma`lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o`ylantirdi. Bu borada menga qo`shimcha ma`lumot zarur.

### Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Aylanma mablag				

Me`erlashgan Aylanma mablag				
Me`erlashmagan Aylanma mablag				
Aylanma mablaglarning aylanish tezligi				

### **Aqliy xujum va masalani echish bosqichlari**

1. Mustaqil fikrlang xayolingizga kelgan barcha g`oya, fikrlarni qog`ozga yozing.
2. Barcha g`oya va fikrlarni yozing, agar ular takrorlanayotgan bo`lsa, maxsus belgi qo`ying.
3. G`oyalarni baholang.
4. eng maqbul g`oya guruh g`oyasi sifatida shakllantiradi.
5. Barcha yozilgan g`oyalar guruh muammosini echish uchun guruhlashtirish mumkin.
6. Guruhning umumiy javobi shakllantiriladi.

YAngi davr o`qitish tizimiga demografik, iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy omillarning ta`siri ostida yangicha talablar qo`ymoqda. Bu o`zgarishlar o`qitishning mazmuni, uslublari, moddiy-texnika bazasi, boshqarish va tashkil etish yo`llari, iqtisodiy dastaklariga o`z ta`sirini ko`rsatadi. Bunday asosiy vazifa – shaxsning mustaqilligi va ijodiy faolligini (from teaching to leaning) rivojlantirish hamda shu orqali o`quvchi-ukuvchining o`z intellektual va estetik salohiyatini ro`yobga chiqarish, o`zgaruvchan dunyoga moslashish qobiliyatini ha tomonlama taraqqiy ettirishga e`tibor qaratiladi. SHaxsning yaratuvchanlik va ijodiy qobiliyatining rivojlanishi pedagogik jarayonning o`zgarishi asosida kechadi, ya`ni ukuvchi o`qitish ob`ekti emas, balki pedagog tomonidan qo`yilgan vazifalarning echimini topishdagi teng huquqli sub`ektga aylanadi.

Bu masalani hal qilishda samarali pedagogik texnologiyalarni qo`llash ijobiy natija beradi. Tadqiqotchilar izlanishlariga asosan, kishilar xotirasida ma`lumot sifatida qilayotgan ishining 90%i, ko`rayotganining 50%i, eshitayotganining 10%i qoladi. SHuning uchun ham ukuvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlashda, amaliy mashg`ulotlar paytida yangi pedagogik texnologiyalarini qo`llash ijobiy samara beradi.

Pedagogik texnologiya - bu butun ukitish va bilimlarni uzlashtirish jarayonida uz oldiga ta`lim shakllarini samaradorlashtirish vazifasini kuyuvchi texnik xamda shaxs resurslari va ularning uzaro alokasini xisobga olib, bilimlarni yaratish, kullash va belgilashning tizimli uslubidir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarda pedagogik jarayon ukitishning shaxsga yunaltirilgan texnologiyalari va metodlari asosida amalga oshirilishi lozim. Interfaol metodlar ta`lim berishda ukuvchilarning axborotlarni uzlashtirib olish faoliyatini tashkil kilishning maxsus shaklidir. Interfaol utishining moxiyati ukuv jarayonini tashkil kilinishida bulib, bunda barcha ukuvchilar bilim olish jarayoniga jalb kilingan buladilar, ular uzlari uylagan narsalar xususida tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega buladilar.

Ukuv materialini uzlashtirishga xar bir shaxs uz ulushini kushadi, bilimlar, goyalar, faoliyat usullari bilan almashinuv jarayoni kuzatiladi. SHu bilan birga ta`limning bu metodik shakli uzaro bir-birini kullab-kuvvatlash va ochikkungillik muxitida bulib utadi.

Ukitishning interfaol metodlarini kullashning bozor iktisodiyoti sharoitida muximligini ta`kidlash urinlidir, chunki bu metodlar insonning umumiy kamoloti uchun zarur bulgan ijtimoiy kunikmalarni rivojlantiradi. Interfaol usullarning quyidagi turlari mavjud:

- Bahs-munozara
- Ishbilarmonlar o`yini
- Rolli o`yinlar
- Keys-stadi
- Trening
- Debat
- Aqliy hujum
- **Tafakkur sinovi**
- Klaster

### **1.7. “Ish haqi va mehnat munosabatlari” mavzusini o`qitishda “klaster” uslubining qo`llanilishi**

XXI – asr jaxon mamlakatlarining ijtimoiy-iktisodiy tarakkiyotida va ayniksa, intellektual rivojlanishda kata uzgarishlarga boy davr bulmokda. Ushbu jarayonda mavjud muammolarni xal etishda kadrlarni ukitish va malakasini oshirish dolzarb masalalardan biri xisoblanadi. Bu esa ukuv rejalari va dasturlarini ishlab chikish va darslarni tashkil etishda yangicha yondashuvlarni talab etmokda. Tabiiyki, Uzbekiston Respublikasining «Ta`lim tugrisida»gi konuni xamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da yangi ilgor pedagogik texnologiyalarni ukuv jarayonida kullashga kata e`tibor karatilgan.

Biz kuyida ukitish jarayonida «Tarmoklar» metodi (Klaster) texnologiyasiga tavsifnoma berib, uni mavzuni ukitishda utkazish tartibi tugrisida metodik tavsiiyanoma berib utamiz.

#### **«Tarmoklar» metodi (Klaster).**


«Tarmoklar» metodi – ukuvchi – ukuvchini mantikiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustakil ravishda adabiyotlardagi foydalanishni urgatishga karatilgan.

Fikrlarning tarmoklanishi – bu pedagogik strategiya bulib, u ukuvchilarni biror bir mavzuni chukur urganishlariga yordam berib, ukuvchilarni mavzuga taalukli tushuncha

yoki anik fikrni erkin va ochik ravishda ketma-ketlik bilan uzviy boglangan xolda tarmoklashlariga urgatadi.

Bu metod biror mavzuni chukur urganishdan avval ukuvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish xamda kengaytirish uchun xizmat kilishi mumkin. SHuningdek, utilgan mavzuni mustaxkamlash, yaxshi uzlashtirish, umumlashtirish xamda ukuvchilarni shu mavzu buyicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

### Ish haqi va mehnat munosabatlari mavzusini “Klaster” usulida o`qitish



#### “KLASTER” USULI

“Klaster” usuli erkin va ochik fikr yuritishga imkon beradi, ukuvchining fikrlash kobiliyatini ustiradi.

“Klaster”ni tuzish koidalari:

1. Xayolingizga kelgan fikrni yozing.
2. Imloga e`tibor bermang.
3. Vakt tugamaguncha yozavering.
4. Kuprok boglanishlar tuzing.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning ushbu elementidan belgilangan vakt ichida (masalan, 3 minut ukuvchi mavzuga oid fikrlarni yanada takomillashtirish, kuprok izlash, izlanish imkoniyatlariga ega buladi.)

### **1.8. O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash mezonlari va materiallari**

Baholash - ta`lim jarayonining ma`lum bosqichida o`quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o`lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Baholashning maqsadi - ta`lim oluvchilar tomonidan o`quv materiallari o`zlashtirilganligini, ko`nikma va malakalar hosil bo`lganligini tekshirish hamda baholash, ta`lim jarayonining turli bosqichlarida ta`lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilishdir.

Bilimlarni tekshirish va baholashning ta`limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o`quv materialining o`zlashtirilganligi haqida ta`lim beruvchi xam, ta`lim oluvchi ham muayyan ma`lumotga ega bo`ladi. Baholash natijasida, ta`lim beruvchi uchun ta`lim oluvchilarning nimani bilishi va nimani tushunmasligi, qaysi material yaxshi o`zlashtirilganu, qaysi biri hali etarli darajada o`zlashtirilmaganligi yoki umuman o`zlashtirilmaganligi ma`lum bo`ladi. Bu ta`lim oluvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo`lib hisoblanadi. Ta`lim beruvchi o`z ishining afzalliklariga va kamchiliklariga tanqidiy baho beradi. O`z ishi metodlariga tuzatishlar kiritadi. SHuningdek, baholash natijalari ta`lim beruvchining o`quv dasturidagi materiallarni ta`lim oluvchining bilish imkoniyatlari nuqtai nazaridan qayta ko`rib chiqishi va baholashi uchun ham juda muhimdir.

Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarning qaysi birlari qiyin, qaysi birlari esa oson o`zlashtirilishi aniq-ravshan bo`ladi. Bu ta`lim oluvchining ijodiy tarzda darsda tayyorgarlik ko`rishi va o`quv mashg`ulotini o`tkazishi uchun asos bo`lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, ta`lim oluvchi ham ta`lim jarayonida qaysi o`quv materialini yaxshi, qaysinisini qoniqarli va nimani yomon o`zlashtirgani ma`lum bo`ladi. Bilimlarni tekshirmasdan ta`lim oluvchi o`z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to`g`ri baholashga qodir emas. Ba`zan unga go`yo u o`quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, tekshirish chog`ida esa materialni yaxshi bilmaslagi, yaxshi tushunmasligi ma`lum bo`lib qoladi. Baholash natijasida, ta`lim oluvchilarning o`rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esga saqlab qolish, anglab olish, amalda qo`llay olish, tahlil qilish va o`z bilimlarini tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi. Ta`lim oluvchi o`z bilimlarining ijobiy tavsifi, ta`lim muassasasida va uydagi ishining uslubini takomillashtirish, bilimlari, malaka va ko`nikmalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tuzatish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Bilimlarni, ko`nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta`lim oluvchilarning o`qishga, o`z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni engish istagi tug`iladi. Baholash hamisha ta`lim oluvchining shaxs sifatida o`ziga nisbatan muayyan bir munosabatini hosil qiladi. Ta`lim beruvchi ta`lim oluvchining o`ziga nisbatan munosabatini, tuyg`ularini, uning xarakteridagi irodalilik, hamkorlik, o`zoro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga qaratilishi lozim bo`ladi.

Ba`zan baholash jarayonida ta`lim oluvchi qo`shimcha bilim, ko`nikma va malakalarga ham erishadi. Ta`lim jarayonida o`zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib etadi. SHu bois, baholashni ta`lim olish jarayonining davomi deb ham aytish mumkin.

Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta`lim muassasasi jamoasining ta`lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, ukuvchilarning umumiy o`zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. Davlat ta`lim standartlarida davlat tomonidan qo`yilgan talablar nechog`lik bajarilayotganligi aniqlanadi.

Natijalarni baholash orqali bir paytning o`zida butun ta`lim tizimi va uning komponentlari tekshirilib ko`rilishi kerak. Bu bilan ta`lim tizimida kutilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib o`lchanadi. Bilimlarni muntazam baholab borish ta`lim rejasi, uning katta-kichik bo`limlari asosida amalga oshiriladi. Ta`lim tizimi natijalari muayyan standart me`yori orqali ifodalanadi.

Baholash natijasida nafaqat ta`lim oluvchining, balki ta`lim beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o`quv jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi. Ta`lim vositalari, rejaları, ta`lim jarayonining tashkil etish sifatida ham baho beriladi.

Ta`lim dasturining qism bo`laklari bo`yicha muntazam baholab borish oxir-oqibat aniq va adolatli baholanish shakllanishiga olib keladi. Kichik bo`limlar bo`yicha baholash, jamlash va umumlashtirish yakuniy baholashning aniq bo`lishiga yordam beradi. Ta`lim oluvchini muntazam ravishda o`z natijalari to`g`risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishi va istaklarini ro`yobga chiqarishga ijodiy ta`sir ko`rsatadi. Ta`lim berish davomidagi nazorat natijalarini o`lchab borish bilim, ko`nikma va malakalarni baholash o`quvchining o`zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

YUqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati haqida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

Nima uchun baholash kerak?

- O`quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- Keyingi bosqichga o`tishdan oldin avvalgi o`zlashtirish darajasi aniqlash uchun;
- Natijaga erishganligini tasdiqlash uchun;
- O`quvchilarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- YUtuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
- O`qituvchi o`z faoliyatini tuzatishlar kiritishi uchun;
- YAlpi o`zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- Ta`lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
- Ta`lim oluvchilarni yutuqlarga qiziqtirish uchun;
- Tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma`lumot berish uchun.

Nimani baholash kerak?

\*amaliy ko`nikma va malakalarni;

\*xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarni;

Kachon baholash kerak?

\*Ta`lim jarayoni boshida (boshlang`ich baholash)

\*ta`lim jarayoni davomida (joriy baholash)  
\*ta`lim jarayoni yakunida (yakuniy baholash).

Baholashning asosiy xususiyatlari;

\*ta`lim maqsadiga yo`nalganlik;

\*muntazam o`tkazib borish;

\*pedagogik, psixologik va huquqiy tamoyillarga asoslanganlik;

\*umumiy qabul qilingan natija standartlariga asoslanganlik.

Baholash mezonlari. Har qanday baholash natijalari o`zaro taqqoslanishi, ya`ni o`lchanishi lozim bo`ladi. Ularni taqqoslash baholashdan oldin yoki keyin ishlab chiqilgan mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Baholash mezonlari o`quv maqsadlariga qay darajada erishilganlikni anglatuvchi ko`rsatkichdir. Bu ko`rsatkichlar so`zlar («a`lo», «yaxshi», «qoniqarli» va xokazo) yordamida tavsiflanishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo`lsak, baholash mezonlari ta`lim oluvchining qaysi o`zlashtirish darajasini namoyish qilishiga qarab mos qo`yiladigan ball ko`rsatkichining tavsifidan iborat.

Baholash tamoyillari. Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish sistemali, doimiy tarzda bo`lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa, ta`lim oluvchilarning o`qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta`sir qiladi.

Bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Har bir ta`lim oluvchi uning qaysi bilimlari, ko`nikma va malakalari baholanayotganini bilish kerak. Ta`lim beruvchining sovellariga va vazifalariga javob berishga tayyorlik holati bilimlarni tekshirish va baholash o`quv jarayonining muhim bir bo`lagiga, uning tarkibiy qismiga aylangan taqdirdagina ro`y beradi.

Ta`lim oluvchining bilimlari, ko`nikma va malakalari davlat o`quv rejalarining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiriladi va baholanadi.

Quyidagi beshta asosiy tamoyillar baholash tizimi samaradorligini poydevori hisoblanadi.

\*o`quv maqsadlariga asoslanganlik

\*haqiqiylik

\*haqqoniylik

\*ishonchlilik

\*qulaylik

1. O`quv maqsadlariga asoslanganlik. Samarali baholashning asosiy tamoyili o`quv maqsadlariga asoslanganlik hisoblanadi. Baholashning sifati o`quv maqsadlariga to`g`ridan-to`g`ri bog`liqdir. O`quv maqsadlari baholash mazmunini aniqlab beradi. O`quv maqsadlarining quyilish darajasiga qarab, baholashning shakli va usullari tanlanadi. SHuningdek, o`quv maqsadlariga erishish uchun bajarilgan faoliyat natijasi, baholash mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

2. Haqiqiylik. O`quv maqsadida ko`zda tutilgan natijagina baholashga qaratilgan topshiriq yoki test haqiqiy hisoblanadi. U baholanishi lozim bo`lgan bilim va ko`nikmalar sohasidagi natijalarga qaratilgan bo`lishi lozim.

Ta`lim oluvchi erishgan natijalar to`g`risida asoslangan va ishonchli axbarotlar berish kerak. Ta`lim oluvchi egallagan bilim, malaka va ko`nikmalar hamda shaxsiy fazilatlarni o`lchash imkonini beradigan metodlardan foydalanish zarur.

3. Haqqoniylik (ob`ektivlilik). Bir xil topshiriq va testlar bo`yicha bir xil baho bergan holdagina mazkur topshiriq va test haqiqiy hisoblanadi. Bu haqqoniylik har xil vaqtlarda berilgan baholar uchun ham taalluqlidir. Baholash tizimi o`quv maqsadalariga

mos bo`lishi, shuningdek baholash shart-sharoitlari va maqsadlari bilan o`quvchilar oldindan tanishgan bo`lishlari lozim. Ta`lim oluvchilarga bir xil murakkablikdagi va hajmdagi topshiriqlar berilishi kerak.

4. Ishonchlilik. Natijalarni baholash mobaynida har xil usullardan foydalanish mumkin. Lekin, bu usullarni tanlashga qo`yiladigan asosiy shart ishonchlilik hisoblanadi. Usul ishonchli bo`lishi uchun baholash asosli va aniq ma`lumotlarga asoslangan bo`lishi zarur.

5. Qulaylik. Baholash tizimi o`quv maqsadlaridan kelib chiqqan holda, o`quv ishlab chiqarish standartlariga mos bo`lishi, murakkab bo`lmasligi, nazorat o`tkazuvchi va ta`lim oluvchi uchun qulay bo`lishi lozim. Baholashni o`tkazishda imkon qadar komp'yuterlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Topshiriq yoki test paytida ball beriladigan bo`lsa, ball berish o`rganish maqsadlarini nazorat qilishga moslashtirilgan bo`lishi lozim. Bunda mavzuning muhimroq bo`lgan qismlariga unchalik muhim bo`lmagan qismlariga nisbatat ko`proq ball berish kerak bo`ladi.

Baholashning reyting tizimi. Reyting tizimidagi ta`lim jarayonida baholash quyidagi nazorat turlari orqali aniqlashishi mumkin:

- Nazorat qilish
  - Xulqini baholash
  - Amaliy bilimlarni baholash
1. Nazorat qilish orqali o`zlashtirganlikni aniqlash:
    - ta`lim oluvchining bilim ko`rsatkichlari darajasini, malakasini shakllantirish;
    - ta`lim oluvchini doimiy baholash va ular olgan baholarni taqqoslab borish;
    - ta`lim oluvchining o`qishga intilishga va o`zaro bellashishga imkoniyatini shakllantirish;
    - ta`lim oluvchilarning bilim saviyasi va malaka ko`nikmalarini haqqoniy baholash;
    - ta`lim beruvchilarning pedagogik faoliyatini to`g`ri baholash.
  2. Xulqini baholash orqali o`zlashtirganlikni aniqlash:
    - ta`lim oluvchilarning darslarga qatnashishi intizomini yaxshilash va ularni fanlar buyicha uzluksiz tayyorgarligini tashkil etish;
  3. Amaliy bilimlarni baholash orqali o`zlashtirganlikni aniqlash:
    - ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchining o`z qobiliyatini oldindan rejalashtirish;
    - ta`lim jarayonining borishini tezkor tahlil qilish;
    - o`z faoliyatida zaruriy o`zgarishlar kiritish imkoniyatini yaratish uchun.

## **NAZARIY BILIM VA AMALIY KO`NIKMALARNI BAHOLASH.**

***Baholash va uning ahamiyati.*** Fanni o`qitishda ukuvchilar xulqini, bilimi va ko`nikmalarini baholash muhim ahamiyatga ega.

***Baxolash «Akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari ukuvchilarining bilim saviyasi, ko`nikma va malakalarining nazorat kilishning “reyting tizimi to`g`risidagi muvaqqat nizom» asosida amalga oshiriladi.*** (UMKXT markazining 17 avgust 192-sonli buyrug`i) Ushbu nizomga asosan o`qitish saviyasi va o`zlashtirish darajasi davlat ta`lim standartlariga muvofiqligini ta`minlash uchun quyidagi nazorat tadbirlari o`tkazish nazarda tutiladi.

- Joriy nazorat (JN) –ogzaki so`rovlar, seminarlar, yozma ishlar laborotoriya ishlari, uy vazifalari, test va shu kabi so`rov shakllari orqali amalga oshiriladi,
  - Oralik nazorat (ON) – fanning ma`lum bir qismi yakunlangandan so`ng o`tkaziladi, oralik nazoratni o`tkazish tartibi va shakli ta`lim muassasining tegishli kafedralari tomonidan belgilanadi.
  - YAkuniy nazorat (YAN)- semestr tamom bo`lgandan keyin amalga oshiriladi. «5» ballik baholash usulini qo`llaganda har bir nazorat turi («5», «4», «3», «2») usulida butun sonlar yordamida baholanadi.
- Muayyan Fan bo`yicha o`quvchining semestr mobaynida to`plashi mumkin bo`lgan umumiy bali (R semestr) maksimum 5 balni tashkil qilib quyidagicha hisoblanadi.

$$R_{\text{semestr}} = \frac{JN+ON+YAN}{3}$$

Agar fan buyicha oralik nazorat o`tkazilmasa,

$$R_{\text{semestr}} = \frac{JN+YAN}{2}$$

Muayyan fan yoki o`kuv amaliyoti bo`yicha yillik umumiy ball sifatida semestrlarda to`plangan ballarining o`rtachasi olinadi.

$$R_{\text{yillik}} = \frac{R1\text{-semestr}+ R2\text{-semestr}}{2}$$

Davlat imtixononi (attestatsiya)lar, ixtisoslik malaka ishlari ham kurs loyixalari xam 5 ballik turi («5», «4», «3», «2») usulda baholanadi.

## Xulosa

Pedagogik texnologiya – bu butun o`qitish va bilimlarni o`zlashtirish jarayonida o`z oldiga ta`lim shakllarini samaradorligini oshirish vazifasini qo`yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o`zaro aloqasini hisobga olib, bilimlarni yaratish, qo`llash va belgilashning tizimli uslubidir. Ushbu bitiruv ishida ta`lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo`llashning afzalliklari haqida fikr yuritilgan bo`lib, «Iqtisodiy bilim asoslari» fanini o`qitishda yangi texnologiyalarni qo`llash xususiyatlari yoritib berildi.

Kirish qismida mustaqillik davrida ta`lim sohasiga qo`yilgan talablar va olib borilayotgan islohotlar haqida fikr yuritilgan. Jumladan, ta`lim sifatini oshirish, zamonaviy talablarga moslashgan o`qitishning shaxsga yo`naltirilgan texnologiyalarini qo`llash tadbiri haqida fikr yuritilgan. Bitiruv ishining asosiy qismida Ukuvchilarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish uchun o`qituvchi yangi bilimlarni o`zlashtirgan bo`lmog`i kerak. Ukuvchilarni yangilikka intiluvchan va bunyodkor inson sifatida esa tarbiyalash uchun esa o`qituvchilarga yangi darsliklar, o`quv va uslubiy qo`llanmalar hamda fanni o`qitishning zamonaviy texnologiyalari zarur bo`ladi. **Bitiruv ishi Buxoro engil sanoat va pedagogika kasb-hunar kolleji misolida bajarildi va kollejdagi dars berish holatlari tahlil qilindi.**

Bitiruv ishining asosiy qismida “Iqtisodiy bilim asoslari” fanining maqsadi va vazifalari, maxsus fanlarni o`qitish metodikasi, **“Ish haqi va mehnat munosabatlari”** mavzuning dars maqsadlari, mavzuni o`qitish metodikasini ishlab chiqishda dastlabki shart-sharoitlar, mavzuni o`qitishda interaktiv usulning mohiyati, mazmuni va afzalliklari, shu mavzuni o`qitishda “Klaster” metodini qo`llanishi, nazariy mashg`ulot texnologik xaritasi va dars ishlanmasi, ukuvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash mezonlari va materiallari yoritib berildi.

Hayot faoliyati xavfsizligi bo`limida kollejlarda pedagog xodimlarning mehnat jarayonidagi xavfsizlik masalalari yoritib berildi.

Umuman, bitiruv ishini bajarish mobaynida men o`zimning mutaxassislik fanlaridan va pedagogik fanlardan olgan bilimlarimni yanada chuqurroq o`rganib, kollejlarda amaliyotida qo`llashni bilib oldim. O`ylaymanki, bitiruv ishini bajarish mobaynida o`rgangan va mustahkamlab olgan bilimlarim mening kelajakdagi pedagogik faoliyatimga yordam beradi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O`zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi // Xalq so`zi, 2010 yil 30 yanvar'.

2. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma`ruzasi // Xalq so`zi, 2010 yil 28 yanvar'.

3. O`zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo`lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. – Prezident Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma`ruzasi // Xalq so`zi, 2009 yil 6 dekabr'.

4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O`zbekiston, 2009. – 56 b.

5. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma`ruzasi // Xalq so`zi, 2009 yil 14 fevral'.

6. Karimov I.A. eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O`zbekiston, 2009. – 24 b.

7. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to`g`risida. 2008 yil 18 noyabr', PF-4053-son.

8. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Fuqarolarning O`zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta`minlashga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida. 2008 yil 28 noyabr', PF-4057-son.

9. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo`llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta`minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to`g`risida. 2008 yil 28 noyabr', PF-4058-son.

10. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida. 2009 yil 20 yanvar', PQ-1041-son.

11. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturini kuchga kiritish to`g`risida. 2009 yil 26 yanvar', PQ-1046-son.

12. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to`ldirish yuzasidan qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida. 2009 yil 26 yanvar`, PQ-1047-son.

13. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Mahalliy nooziq-ovqat iste`mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag`batlantirish borasidagi qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida. 2009 yil 28 yanvar`, PQ-1050-son.

14. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Uy-joy fondini foydalanishga tayyor holda topshirish shartlarida rekonstruktsiya qilish va ta`mirlash bo`yicha pudrat ishlarini kengaytirishni rag`batlantirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida. 2009 yil 29 yanvar`, PQ-1051-son.

15. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to`g`risida. 2010 yil 27 yanvar`, PQ-1271-son.

16. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish tartibini tasdiqlash to`g`risida. 2008 yil 19 noyabr`, F-4010-son.

17. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. 2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to`g`risida. 2009 yil 13 fevral`.

18. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari» nomli asarini o`rganish bo`yicha o`quv qo`llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.

19. O`zbekiston – iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda islohotlarni chuqurlashtirishning yangi va yuksak bosqichi yo`lida. (Bekmurodov A.SH., G`afurov U.V.) T.: Iqtisodiyot, 2008. – 126 b. (elektron versiyasi bilan).

20. Ommabop iqtisodiyot: mohiyati va asosiy tushunchalari (o`zbek va rus tillarida). Ilmiy-ommabop qo`llanma. (Bekmurodov A.SH., Gimranova O.B., SHamshieva N.N.) T.: Iqtisodiyot, 2009. – 92 b. (elektron versiyasi bilan).

21. O`zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash yo`lida. ekspress-prospekt. (Bekmurodov A.SH., Berkinov B.B., Usmonov B.B., Hamidov O.M., G`afurov U.V. va Ne`matov I.U.). - T.: Iqtisodiyot, 2009. – 10 b. (elektron versiyasi bilan).

22. 2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari. ekspress-testlar. (Bekmurodov A.SH., Amonboev M.A., Kattaev N.T.). - T.: Iqtisodiyot, 2009. – 15 b. (elektron versiyasi bilan).

23. O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasining tegishli yillar bo`yicha statistik to`plamlari.

- 1.Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi,O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. T.: "O`zbekiston" 2009y.-56 b.
- 2.Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.: «O`zbekiston» 2000 y.
- 3.Karimov I.A. O`zbekiston buyuk kelajak sari. T.: «O`zbekiston» 1998 y.
- 4.Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish – eng muhim vazifamiz. T.8 - T.: O`zbekiston, 2000.
- 5.Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. –T.: O`zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2000.
- 6.Karimov I.A. YUksak mutaxassislar - taraqqiyot omili. -T.: O`zbekiston, 1997.
- 7.Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. T.: «O`zbekiston» 1998 y.
- 8.Makkonell K., Bryu S. «Ekonomiks» 1 tom. M-Respublika 1992y.
- 9.O`lmasov A. Iqtisodiyot asoslari (o`quv qo`llanma) T.: «Mehnat» 1997 y.-222 b.
- 10.Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi (o`quv qo`llanma) T.: «SHarq» 2003 y.-414 b.
- 11.Abdurahmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi (darslik) T.: «O`qituvchi» 2001 y.-479 b.
- 12.Farberman B. Ilg`or pedagogik texnologiyalar: O`quv qo`llanma. -T.: Fan, 2001.
- 13.Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o`qitish texnologiyalari: O`quv qo`llanma. – B.: Muallif, 2001.
- 14.A.Xolbekov, F.Rasulov, O.Axmedov va boshqalar. O`quv jarayoniga interaktiv usullarni tatbiq etish bo`yicha qo`llanma: Uslubiy qo`llanma /.-T.: Akademiya, 2007.
15. Ishmuhamedov R. Abduqodirov A. Pardaev A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar.-T.:Iste`dod, 2008.
16. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o`qitish metodikasi. Kasb-hunar kollejlari o`qituvchilari uchun metodik qo`llanma.-Toshkent: Fan, 2004.
- 17.Mavlonova R. va boshq. Pedagogika: Darslik. / R.Mavlonova. O.To`raeva. K.Xoliqberdiev. –T.: O`qituvchi, 2001.
- 18.A.Nishonov, B.Xaydarov va boshqalar. Baholash metodlari. Toshkent. Osiyo taraqqiyot banki. 2003.
- 19.Olimov Q.T., Nazarova N.N., SHukurova B.T. Ukuvchilar bilimini baholashning zamonaviy usullari . Ta`lim muammolari.-2003.-№1.
- 20.Zunov A. Didaktika. )T.: « O`zbekiston» 2006 y.- 125 b.
- 21.O`lmasov A., SHarifxo`jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik) T-«Mehnat» 1995y.
- 22.Mamarasulov U. Iqtisodiyot va bozor munosabatlari. T-1996 y.
- 23.SHOyusupova N.T. Mehnat sotsiologiyasi (o`quvqo`llanma) T.: «O`qituvchi» 2004 y.- 126 b.

24.Narziqulov R.N. Inson resurslari. (o`quvqo`llanma) T.: «O`qituvchi» 2004 y.- 190 b.

*Internet saytlari:*

[www.cer.uz](http://www.cer.uz)

[www.referat.uz](http://www.referat.uz)

[www.ttesi.uz](http://www.ttesi.uz)

[www.freenet.uz](http://www.freenet.uz)

[www.litera.ru](http://www.litera.ru)

[www.college.ru](http://www.college.ru)

[www.vgfk.vrn.ru](http://www.vgfk.vrn.ru)

[examen.od.ua](http://examen.od.ua)